

IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHDA MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO MAJBURIYATLARNING IMPLEMENTATSIYASI

Komilov Shohjahon Komilovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Shohjahonkomilov7202@gmail.com telefon raqam (+99894) 010-72-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19815743>

Annotatsiya: Ushbu tezisda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash sohasidagi xalqaro shartnomaviy majburiyatlar, jumladan Parij kelishuvi (2015) va BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha Doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) talablari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu xalqaro me'yorlarning O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilinishi, huquqiy mexanizmlar va amaliy muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, Parij kelishuvi, UNFCCC, milliy qonunchilik, implementatsiya, parnik gazlari, ekologiya huquqi, xalqaro shartnoma,

Kirish:

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik, balki huquqiy va siyosiy jihatdan ham global muammoga aylangan. Yer shari haroratining ko'tarilishi, tabiiy ofatlarning ko'payishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi holatlar xalqaro hamjamiyatni birgalikda harakat qilishga majbur etmoqda. Aynan shu zarurat natijasida ko'plab xalqaro shartnomalar va kelishuvlar tuzildi, ularning eng muhimi 2015-yilda Parij kelishuvi hisoblanadi.

Ammo xalqaro majburiyatlarni qabul qilish, muammoni hal qilish uchun yetarli hisoblanmaydi. Ularni milliy qonunchilikka singdirish, ya'ni implementatsiya qilish zarur.

Implementatsiya bu — davlatning xalqaro shartnomaviy majburiyatlarini ichki huquqiy tizimga kiritish va amaliyotda ijro etilishini ta'minlash jarayonidir. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonning ishtirokchisi bo'lib, bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va milliy siyosatni mos ravishda isloh qilmoqda.

Asosiy qism. Xalqaro huquqiy asos va milliy implementatsiya muammolari

1. Xalqaro shartnomaviy majburiyatlar

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asosini 1992-yilda qabul qilingan BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha Doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) tashkil etadi. Ushbu konvensiya ishtirokchi davlatlarni parnik gazlari chiqindilarini kamaytirish, iqlim bo'yicha ma'lumot almashish va rivojlanayotgan davlatlarga moliyaviy hamda texnik yordam ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar oladi. O'zbekiston Respublikasi UNFCCC ga 1993-yilda qo'shilgan va shu bilan xalqaro iqlim rejimining to'laqonli ishtirokchisiga aylangan.

Keyingi muhim qadam sifatida 1997-yilda qabul qilingan Kioto protokolini ko'rsatish mumkin. Mazkur protokol sanoat davlatlari uchun parnik gazlari miqdorini aniq raqamlarda kamaytirish majburiyatini belgilaydi. Garchi O'zbekiston Birinchi majburiyat davri (2008–2012) bo'yicha miqdoriy cheklovlarga ega bo'lmasa-da, protokol doirasida ekologik loyihalar va texnologiya transferiga yo'naltirilgan qo'shimcha mexanizmlardan foydalanish imkoniyati mavjud edi.

2015-yilda qabul qilingan Parij kelishuvi esa zamonaviy xalqaro iqlim huquqining markaziy hujjatiga aylandi. Kelishuvning asosiy maqsadi sanoat inqilobigacha bo'lgan davr bilan solishtirganda Yer shari o'rtacha haroratining ko'tarilishini 2°C dan past, iloji boricha 1,5°C darajada ushlab turish hisoblanadi. Parij kelishuvi ishtirokchi davlatlardan Milliy ravishda belgilangan hissalar (Nationally Determined Contributions — NDC) taqdim etishni

talab qilib keladi. O'zbekiston 2021-yilda yangilangan NDC hujjatini topshirgan bo'lib, 2030-yilga kelib parnik gazlari intensivligini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirish maqsadini qo'ygan.

2. O'zbekiston Respublikasida implementatsiyaning huquqiy mexanizmlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 55-moddasi (2023-yil yangi tahrirda) atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish davlat siyosatining asosiy yo'nalishi ekanligini mustahkamlab qo'yilgan. Bu norma iqlim sohasidagi xalqaro majburiyatlarning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Sohaviy qonunchilik nuqtayi nazaridan 1992-yilda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 1996-yildagi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun hamda 2019-yilda qabul qilingan "Energiyadan samarali foydalanish to'g'risida"gi Qonun implementatsiyaning asosiy huquqiy vositalaridan hisoblanadi. Ushbu qonunlar parnik gazlarini nazorat qilish, sanoat korxonalarini uchun chiqindilar limitini belgilash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish sohasida aniq mexanizmlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori ushbu sohada maqsadli davlat dasturining huquqiy asosini yaratdi. Qomusiy jihatdan qaraganda, mazkur hujjat Parij kelishuvi majburiyatlarini davlat boshqaruvi tizimiga kiritishning muhim bosqichi bo'lib xizmat qildi.

3. Implementatsiyaning muammoli jihatlarini: Qiyosiy tahlil

Xalqaro tajribani ko'rib chiqsak, Yevropa Ittifoqi (YeI) a'zo davlatlarida implementatsiya eng yuqori darajada tashkil etilgan. YeI 2021-yilda "Yashil kelishuv" (European Green Deal) strategiyasini qabul qilib, 2050-yilga kelib iqlim neytralligiga erishishni qonuniy jihatdan majburiy maqsad sifatida belgiladi. Germaniyada 2019-yilda qabul qilingan Iqlim himoyasi to'g'risidagi qonun (Klimaschutzgesetz) sektorlar bo'yicha aniq miqdoriy maqsadlarni va ularning bajarilmasligiga nisbatan huquqiy choralarni nazarda tutadi. Xitoy Xalq Respublikasi ham katta miqdordagi parnik gazi chiqindilari ishlab chiqaruvchi sifatida 2060-yilga kelib uglerod neytralligiga erishishni rasmiy majburiyat qilib oldi. Buning uchun 2021-yilda milliy uglerod savdosi tizimi (Emissions Trading System — ETS) joriy etildi. Bu mexanizm sanoat korxonalariga uglerod kvotalarini sotib olish va sotish imkonini berib, bozor mexanizmi orqali chiqindilarni kamaytirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston tajribasiga nisbatan qiyoslasak, quyidagi farqlar namoyon bo'ladi: **birinchidan**, O'zbekistonda uglerod savdosi mexanizmi hali shakllanmagan, **ikkinchidan**, iqlim sohasidagi qonunchilik tarqoq holda turli qonun va qoida normalarida aks etgan va yaxlit kodifikatsiya qilinmagan, **uchinchidan**, iqlim majburiyatlarining bajarilmasligiga nisbatan aniq huquqiy sanksiyalar belgilanmagan.

Xalqaro tajribani o'rganish davomida Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qozog'iston nisbatan ilg'or tajribaga ega ekanligini guvohi bo'ldik: 2021-yilda O'zbekistonga o'xshash NDC majburiyatlarini yangilagan va milliy uglerod hisobi tizimini joriy etgan. Qirg'iziston va Tojikiston esa suv resurslari va muzliklarning erishi muammosi bilan chambarchas bog'liq ravishda iqlim implementatsiyasini rivojlantirayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

4. Implementatsiyani takomillashtirish bo'yicha takliflar

Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi huquqiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchi taklif: O'zbekiston Respublikasida "Iqlim o'zgarishi to'g'risida" gi alohida Qonunni qabul qilish zarur. Bunday qonun NDC majburiyatlarini milliy qonunga kiritib, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil iqlim organi tuzilishini ta'minlashi lozim. **Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasi** bunday qonunning huquqiy ta'sirini ko'rsatib bermoqda.

Ikkinchi taklif: Uglerod narxlari mexanizmini (uglerod solig'i yoki ETS) joriy etish kerak. Bu bozor vositasi orqali sanoat korxonalarini o'z faoliyatini iqlim talablariga moslashtirishga iqtisodiy rag'bat oladi. BMT Muhit dasturi (UNEP) hisobotlariga ko'ra, uglerod narxlari mexanizmi chiqindilarni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi taklif: Iqlim maqsadlarini milliy rivojlanish rejalari, investitsion dasturlar va byudjet jarayoni bilan integratsiya qilish zarur. Parij kelishuvining 2-moddasi davlatlardan iqlim maqsadlariga mos moliyaviy oqimlar ta'minlashni talab qiladi. Hozirgi holatda O'zbekistonning byudjet va investitsiya siyosati iqlim majburiyatlaridan mustaqil ravishda shakllantirilmoqda.

To'rtinchi taklif: Iqlim sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish va davlat boshqaruv idoralari xodimlarini ixtisoslashtirish dasturlarini amalga oshirish lozim. Xalqaro shartnomalar, NDC mexanizmlari va iqlim huquqi sohasidagi bilimlarning yetarli emasligi implementatsiyaning asosiy to'siqlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa:

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash — faqat ekologik emas, balki chuqur huquqiy mohiyatga ega bo'lgan jarayon. Xalqaro majburiyatlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi davlatning xalqaro huquqdagi ma'suliyatini ifodalaydi va amaliy ta'sirini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi ushbu yo'lda bir qator ijobiy qadamlar qo'ygan bo'lsa-da, huquqiy tizim hali to'liq shakllanmagan va xalqaro standartlarga erishish uchun sistematik islohotlar talab etiladi.

Iqlim sohasida alohida milliy qonunning qabul qilinishi, uglerod narxlash mexanizmining joriy etilishi hamda iqlim maqsadlarining moliyaviy va sektoral siyosatga integratsiya qilinishi O'zbekistonga Parij kelishuvi majburiyatlarini to'liq bajarish imkonini beradi va mintaqaviy hamda global iqlim kurashiga munosib hissa qo'shishga zamin yaratadi. Ushbu turdagi islohotlar nafaqat xalqaro majburiyatlarni bajarish, balki O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish yo'lidagi strategik manfaatlariga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha Doiraviy konventsiyasi (UNFCCC), 1992-yil.
2. Parij kelishuvi, 2015-yil 12-dekabr.
3. Kioto protokoli, 1997-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (2023-yil yangilangan tahriri).
5. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1992-yil.
6. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1996-yil.
7. "Energiyadan samarali foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son Qarori, 2019-yil 4-oktabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy ravishda belgilangan hissalar (NDC), 2021-yil yangilangan hujjat.

10. Germaniya Iqlim himoyasi to'g'risidagi qonuni (Klimaschutzgesetz), 2019-yil.
11. Yevropa Ittifoqi "Yashil kelishuv" strategiyasi (European Green Deal), 2021-yil.
12. UNEP Emissions Gap Report, 2023-yil.
13. Qozog'iston Respublikasining yangilangan NDC hujjati, 2021-yil.

